

DEVELOPMENT PROSPECTS OF KHOREZM REGION TOURISM

Khayitova Onakhon Abdrimovna
Urganch State University 1st stage master's degree

XORAZM VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Hayitova Onaxon
UrDU 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Tadqiqot ishida Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar, viloyatning turizm salohiyati, turistik obyektlar, ularning ayni damdagi holati bayon qilinadi. Viloyatda turizm sohasida kelajakda qilinadigan ishlar, yangi ishlab chiqilayotgan loyihalar to'g'risida turli fikrlar bayoni keltiriladi.

Kalit so'zlar: Turizm, turizm mahallalari, Xiva, "Ichan qal'a" muzey qo'riqxonasi, turistik obyektlar, muammolar, qal'alar, Qal'ajiq qal'a maskani

Аннотация: В исследовательской работе описаны туристы, посетившие Хорезмскую область, туристический потенциал региона, туристические объекты, их современное состояние. Будут представлены различные мнения о дальнейшей работе в сфере туризма в регионе, новых разрабатываемых проектах.

Ключевые слова: Туризм, туристические кварталы, Хива, музей-заповедник «Замок Ичан», туристические объекты, проблемы, замки, памятник замка Калайык.

Abstract: Tourists who visited Khorezm region, tourism potential of the region, tourist objects, their current situation are described in the research work. Various opinions on the future work in the field of tourism in the region, newly developed projects will be presented.

Key words: Tourism, tourism neighborhoods, Khiva, "Ichan Castle" museum-reserve, tourist objects, problems, castles, Kal'ajyk Castle

Turizm deganda, jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy, amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan, joyda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda 24 soatdan kam bo'lmagan va 365 kundan oshmagan holda sayohat qilish tushuniladi. Turizm tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushtirilgan sayohat hisoblanadi. Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yil dastlabgi temiryo'l sayohatini uyushtiradi[4]. Hozirgi kunda turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarda ommaviy tus oldi. Odatda, turizm maxsus turistik tashkilotlar orqali turistik marshrutlar bo'yicha o'tkaziladi. Turizmning bir qancha turlari mavjud. Ular quyidagilar ichki, xalqaro, havaskorlik, uyishgan turizm, yaqin joyga sayohat, toqqa chiqish, avtoturizm, sport turizmi va boshqalar. Hozirgi kunda yurtboshimiz tomonidan yurtimizda turizmni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Turizm obyektlari holati yaxshilanmoqda, tarixiy obidalar rekonstruksiya qilinib ko'rinishi yaxshilanmoqda. Zero, yurtboshimiz aytganiday "Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda" [1]. Darhaqiqat, hozirgi kunda turizm sohasini iqtisodiyotning eng yuqorisiga qo'ygan turizm davlatlari talaygina. Ularga Turkiya, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Saudiya Arabistoni kabi turizm sohasi rivojlangan davlatlarni misol tariqasida keltirish mumkindir.

Xorazm viloyati ham hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasidagi turizm rivojlangan viloyat hisoblanadi. Xorazm viloyati qadimdan o'zining boy tarixi, noyob tabiati bilan ko'pchilikda qiziqish uyg'otib kelgan. Bugungi kunda Xorazm viloyati hududida 256 ta ma'daniy me'ros obyektlari ro'yhatdan o'tkazilgan. Shulardan 18 ta

arxeologiya, 133 ta arxitektura, 67 ta haykaltaroshlik, 6 ta diqqatga sazovor joylar, 32 tasi muqaddas joylar hisoblanadi [3]. “Osmon ostidagi muzey” sifatida e’tirof etilgan Xiva shahridagi “Ichan qal’a” muzey qo’riqxonasi ko’p yillardan beri sayyohlarni o’ziga jalb etib kelmoqda. Xorazm viloyatida nafaqat Xiva shahri, balki boshqa sayyohlarni jalb qiladigan boshqa go’zal joylar ham mavjuddir. O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 28.09.2002 yil 546-son “2022-2026-yillarda Xorazm viloyati turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko’ra, Xorazm viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni jadal rivojlantirish, turizm infrotuzilmasini yaxshilash, kelgusi besh yilda viloyatda turizm xizmatlari hajmini keskin oshirish hamda ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, shuningdek yangi ish o’rinlari yaratish ko’zda tutilgan. Ayniqsa, viloyatning turizm rivojlangan Xiva, Yangiariq, Shovot, Xonqa, Bog’ot kabi tumanlarida mavjud imkoniyatlardan foydalanish hamda ularni yanada rivojlantirish ko’zda tutilgan [2]. Xorazmning buyuk tarixini, buyuk Xorazmshohlar tarixini ko’rsatib berish, kelgusi avlodlarga ularning jasoratini anglatish maqsadida “Xorazmshohlar tarixi davlat muzeyi” tashkil etish ham ko’zda tutilgan. Bilamizki, Xiva Xorazmning asosiy turistik shahri. Shuni inobatga olgan holda, bu shaharda turistlarga xizmat ko’rsatishni yanada rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu borada shaharda ko’plab ishlar olib borilmoqda. Xiva tumanidagi “G’ovuk” MFY da turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali 85 ta yangi ish o’rni yaratish ko’zda tutilgan [2]. G’ovuk hududida ekoturizm zonasi tashkil etilgan va sayyohlarni e’tiborini tortib kelmoqda. Mustaqillik yillarida ham Xiva shahridagi tarixiy obidalar, minoralar, maqbaralarning tashqi ko’rinishiga katta e’tibor berilgan. Ko’pchilik obidalar tashqi ko’rinishi talabga javob bermasligi aniqlangach, ularga zarar berilmagan holatda yangidan o’zgartirish kiritildi. Viloyatning Bog’ot tumani ham turizm rivojlangan hududlardan hisoblanadi. Bu yerda “Qal’ajiq qal’a” maskani joylashgan bo’lib bu yerdagi ko’l suvi shifobaxsh hisoblanadi. Sog’lomlashtirish maqsadida bu yerga

mahalliy aholidan tashqari xorijliklar ham tashrif buyurmoqdalar. Bu qal'a ham qadimiy bo'lib, ko'pchilikda qiziqish uyg'otib kelmoqda. Hozirgi kunda bu hududga olib boradigan yo'llarni ta'mirlab, rekonstruksiya qilish ko'zda tutilgan. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlarga muvofiq turizm salohiyati rivojlangan hamda turizm drayveri sifatida rivojlantirish rejalashtirilgan tumanlarda quyidagi turizm mahallalari tashkil etish rejalashtirilgan:

Tuman (shahar) nomi	“Turizm mahallasi” nomi
<u>Bog'ot tumani</u>	<u>“Qalajiqqal'a” MFY</u>
Xiva tumani	<u>“G'ovuk” MFY</u>
Xiva shahri	<u>“Yangi turmush” MFY</u>
<u>Xiva shahri</u>	<u>“Qumsayqa” MFY</u>
Xiva <u>shahri</u>	<u>“Kaptarxona” MFY</u>
<u>Xiva shahri</u>	<u>“Ichan qal'a” MFY</u>
<u>Xiva shahri</u>	<u>“Mevaston” MFY</u>
<u>Xiva shahri</u>	<u>“Kalta minor” MFY</u>
<u>Xiva shahri</u>	<u>“Yangi hayot” MFY</u>
<u>Xiva shahri</u>	<u>“Sangar” MFY</u>
<u>Shovot tumani</u>	<u>“Beshmergan” MFY</u>
<u>Yangiariq tumani</u>	<u>“Ostona” MFY</u>
<u>Yangiariq tumani</u>	<u>“Ulug'bek” MFY</u>

Bu hududlarda turizmni yanada rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanish uchun ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hozirda Xorazm viloyatida ham turizmni rivojlantirish uchun yetarli ishlar olib borilmoqda. Hududda tarixiy, ma'daniy turizm bilan birga,

tabiiy sharoiti va hayot tarziga ko'ra qishloqlardagi turizmni ham rivojlantirish mumkin. Mavjud tabiiy-rekratsion sharoitlar milliy va hunarmadchilik buyumlari ko'rgazmalari tashkil etish, sayyohlar uchun turli bog'larga tashrif buyurib sayr qilish juda katta qiziqish uyg'otadi. Turli turizm rivojlangan xorijiy davlatlarni turizm yo'nalishida olib borayotgan ishlari va loyihalarini tarjiba sifatida olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tashrif buyuruvchi sayyohlarga har tamonlama yetarli darajada xizmat ko'rsatish, ular uchun barcha sharoitlarni yanada sifatli tarzda yaratish lozim. Shundagina ularda yana tashrif buyurish hissi paydo bo'ladi. Yana turizmga aloqador mutaxassislar malakasi va bilimini ham oshirish lozim. Masalan, gid tarjimonlari qanchalik bilimli va muomalali bo'lsalar, shunchalik ko'p sayyohlarni o'ziga va turistik hududga jalb eta olishi, hudud haqida to'laroq ma'lumot berib ularda qiziqish uyg'otishi mumkin. Shu ishlarga e'tiborning yanada oshirilishi viloyatimiz turizm sohasida rivojlanishni yanada kuchaytirib, tashrif buyuruvchi sayyohlarning oqimini sezilarli ravishda ortib borishiga hissa qo'shadi. Bu esa iqtisodiyotga ham ancha foyda olib keladi va rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent-2020
2. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. Loyiha. Toshkent-2014
3. "O'zbekturizm" MK ning Xorazm viloyati mintaqaviy bo'limi hisobot ma'lumotlari
4. www.lex.uz